



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Qudratovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashevich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
Melibayev Sodir Adilovich	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI	135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN	140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI	162
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	166
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	171
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
Umarova Malika Nematjanovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
Рахмонов Джамшид Одил угли	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
Avazbek Jo'rayev	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI	207
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	211
Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ.....	215
Абдулаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.....	228
Mohichexra Melikovna Mo'minova	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI	233
Dilbar Xasanovna Aslanova, Usmanova Zumrad Islamovna	
TA'LIM TIZIMIDA MARKETING YONDASHUVI VA TAMOYILLARINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	239
Musayeva Shoira Azimovna, Raxmonova Aziza Tolibovna	
MEHMONXONALAR VA OILAVIY MEHMON UYLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	245
Boynazarov Ulug'bek Egamberdiyevich	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISH ORQALI ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	250
Daminov Mirvoxiid Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MAKROIQTISODIY VA TARMOQ KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TAHLIL	255
Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING INNOVATSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI	264
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
ИССЛЕДОВАНИЕ АКТИВНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ КАТАЛИЗАТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГИДРООЧИСТКИ НЕФТЕПРОДУКТОВ И ИХ РОЛЬ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.....	271
Тураев Баходир Тиркашевич, Махманов Дониёр Махманович	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY TURIZM BOZORINING MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDAGI KOMPLEKS TAHLILI	276
Namozov Shahzod Maxmud o'g'li	
INNOVATIVE TRANSFORMATION PROCESSES AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE FIELD OF AGRICULTURAL SERVICES.....	282
Djurayeva Dilnoza Davronovna, Boltayeva Shakhnoza Bebudovna	
COMPARISON OF HOSPITAL-BASED AND HOME-BASED REHABILITATION AFTER CERVICAL SPINE SURGERY IN UZBEKISTAN	290
Shokhrukh Ziyavaddinov	
O'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY KOEFFITSIYENTLARI TAHLILI	299
Norqulov Mirsaid To'lqin o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	306
Turdiyev Izatulla Ollaqulovich	



TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI

Turdiyev Izatulla Ollaqulovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich magistranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-3223-2055>

E-mail: izzatbekallakulovich@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari bank sektorida davlat ulushining yuqori darajada caqlanib qolayotgani aktivlar va kredit resurslari konsentratsiyasining ortishiga sabab bo'layotganini hamda bu holat raqobat muhitining to'liq shakllanishini cheklayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, xususiy banklar tomonidan depozitlar jalb qilish va raqamli xizmatlarni rivojlantirish yo'nalishida nisbatan yuqori faollik kuzatilayotgan bo'lsa-da, ularning umumiy bozor ulushi yetarli darajada emasligi asoslab berilgan.

Maqolada tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari asosida statistik va qiyosiy tahlillar amalga oshirilib, banklar o'rtasidagi raqobat darajasiga baho berilgan. Shuningdek, banklarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan adaptiv mexanizm ishlab chiqilib, uning nazariy va amaliy jihatlari asoslangan. Tadqiqot natijalari bank sektorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va uni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, raqobat muhiti, bank sektori, davlat ulushi, raqobatbardoshlik, moliyaviy ko'rsatkichlar, qiyosiy tahlil, depozitlar, kredit portfeli, adaptiv mexanizm, raqamli xizmatlar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article analyzes the formation and development trends of the competitive environment in commercial banks based on a systematic approach. The research findings indicate that the high level of state ownership in the banking sector contributes to the concentration of assets and credit resources, thereby limiting the full development of a competitive environment. At the same time, although private banks demonstrate relatively high activity in attracting deposits and developing digital services, their overall market share remains insufficient.

The article presents statistical and comparative analyses based on the main financial indicators of commercial banks and evaluates the level of competition among them. In addition, an adaptive mechanism aimed at improving the competitiveness of banks has been developed, and its theoretical and practical aspects have been substantiated. The research results provide a basis for drawing scientific and practical conclusions regarding the formation and development of a healthy competitive environment in the banking sector.

Key words: commercial banks, competitive environment, banking sector, state ownership, competitiveness, financial indicators, comparative analysis, deposits, loan portfolio, adaptive mechanism, digital services, financial stability.

Аннотация. В данной статье на основе системного подхода анализируются процессы формирования и тенденции развития конкурентной среды в коммерческих банках. Результаты исследования показали, что высокий уровень государственного участия в банковском секторе способствует усилению концентрации активов и кредитных ресурсов, что ограничивает полноценное формирование конкурентной среды. Вместе с тем, несмотря на относительно высокую активность частных банков в привлечении депозитов и развитии цифровых услуг, их общая доля на рынке остается недостаточной.

В статье проведены статистический и сравнительный анализы на основе основных финансовых показателей коммерческих банков, а также дана оценка уровню конкуренции между ними. Кроме того, разработан адаптивный механизм повышения конкурентоспособности банков и обоснованы его теоретические и практические аспекты. Результаты исследования позволяют сделать научно-практические выводы по вопросам формирования и развития эффективной конкурентной среды в банковском секторе.

Ключевые слова: коммерческие банки, конкурентная среда, банковский сектор, государственное участие, конкурентоспособность, финансовые показатели, сравнительный анализ, депозиты, кредитный портфель, адаптивный механизм, цифровые услуги, финансовая устойчивость.



KIRISH

Hozirgi globallashtirish va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida bank tizimi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim institutsional tizimlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tijorat banklari moliyaviy vositachilik faoliyatini amalga oshirish orqali investitsiya jarayonlarini jadallashtirish, iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda a'holi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, bank tizimida samarali va sog'lom raqobat muhitining shakllanishi iqtisodiy o'sishning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining hozirgi rivojlanish bosqichi chuqur institutsional yangilanishlar va keng ko'lamli islohotlar bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich optimallashtirish, bozor mexanizmlarini kuchaytirish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bank sektorining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratmoqda. Davlat ulushining yuqori bo'lgani iqtisodiyotning strategik yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynagan bo'lsa, bugungi islohotlar ushbu tajribani saqlagan holda resurslarni samarali taqsimlash, xususiy banklar faoliyatini rag'batlantirish va sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini bermoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish hamda bank tizimini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, izchil islohotlar amalga oshirilmog'da. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli Farmonida¹ bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini kengaytirish hamda sohada raqobat muhitini rivojlantirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan. Ushbu strategik yo'nalishlar bank sektorini modernizatsiya qilish, moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish orqali raqobatni kuchaytirishga qaratilgan [2].

Shuningdek, 2020-yil 6-iyuldagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-sonli Farmonda² moliya va kapital bozorlarida davlat ishtirokining yuqori darajada saqlanib qolayotgani, bu esa manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarib, bozor mexanizmlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgani alohida ta'kidlangan. Mazkur hujjatda iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash hamda raqobat muhitini yanada rivojlantirish zarurati asoslab berilgan bo'lib, bu bank sektorida ham tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, 2025-yil 28-fevraldagi PF-35-sonli³ "Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish va xususiy sektorning rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonda iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish va xususiy sektorning rolini oshirish asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shuningdek, 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-sonli⁴ "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish orqali moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish hamda bank tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish vazifalari ilgari surilgan. Ushbu hujjatlar bank sektorida yangi raqobat omillarini shakllantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlash orqali tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tijorat banklarida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish, bank sektorida davlat ulushining yuqori darajasi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish hamda zamonaviy sharoitlarda banklarning raqobatbardoshligini oshirishning adaptiv mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu yo'nalishlarda ilmiy asoslangan xulosalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank tizimida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini o'rganish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tijorat banklari faoliyatida raqobat omillari, bank menejmenti va marketing strategiyalarining takomillashuvi, shuningdek, moliyaviy xizmatlar bozorida ustunlikka erishish mexanizmlari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda keng tahlil etilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar bank tizimi samaradorligini oshirishda raqobat muhitining ahamiyati beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2020 yildagi PF-6019-son <https://lex.uz/ru/docs/-4887654>.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.03.2026 yildagi PF-35-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8076453?ONDATE=07.03.2026>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.10.2025 yildagi PF-189-son <https://lex.uz/uz/docs/-7789403>



Xususan, I.R. Toymuhamedov, R.R. Tojiyev, A.A. Azlarova va N.R. Bazarova kabi olimlarning ilmiy ishlarida bank tizimida yuzaga kelayotgan zamonaviy tendensiyalar bank boshqaruvi hamda marketing faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishni talab qilayotgani ta'kidlangan. Mualliflar banklar sonining ortib borishi tabiiy ravishda raqobatning kuchayishiga olib kelishini qayd etib, bu jarayon bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish va mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirishini asoslab berganlar.

Banklar o'rtasidagi raqobatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida resurslarni jalb qilish mexanizmlari ham alohida o'rganilgan. Jumladan, A.J. Abdulloyev va hammualliflar o'z tadqiqotlarida foiz siyosati banklar o'rtasidagi raqobat kurashining asosiy instrumentlaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, depozitlar bo'yicha taklif etilayotgan daromadlilik darajasi mijozlarning moliyaviy qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda ushbu holat banklarning resurs bazasini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda tijorat banklarining rivojlanish darajasi ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ularni tashkil etish darajasiga bevosita bog'liqdir. Bank xizmatlari bozori tobora kengayib borayotgan sharoitda raqobat omili muqarrar ravishda kuchayib boradi. Bu esa banklarni xizmatlar sifati oshirish, yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish hamda mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga undaydi.

Bundan tashqari, makroiqtisodiy omillarning banklararo raqobatga ta'siri ham ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Xususan, milliy valyuta kursining o'zgarishi, jumladan, devalvatsiya jarayonlari xalqaro va ichki bozorlarda raqobat muhitining keskinlashuviga olib kelishi qayd etiladi. Mazkur holat nafaqat bank tizimiga, balki umuman iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotchilar ishlarida banklarning raqobat strategiyalari va biznes modellari masalalari keng yoritilgan. Jumladan, Rungporn Roengpitya o'z tadqiqotlarida banklar o'zaro farqlanish strategiyasini tanlash orqali raqobat ustunligiga erishishini asoslab beradi. Muallifning ta'kidlashicha, banklar turli vositachilik faoliyatlariga ixtisoslashish hamda o'z biznes maqsadlariga mos balans tuzilmasini shakllantirish orqali bozorda barqaror o'rin egallashga intiladilar. Bu esa banklar o'rtasidagi raqobat nafaqat narx omili, balki xizmatlar sifati va strategik boshqaruv darajasida ham kechishini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank sektorida raqobat muhitining rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular qatoriga banklar sonining ortishi, foiz siyosati, xizmatlar sifati, makroiqtisodiy barqarorlik hamda banklarning strategik boshqaruv yondashuvlari kiradi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda bank sektorida davlat ulushining yuqori darajada saqlanib qolishi sharoitida raqobat muhitini yanada rivojlantirish va uni takomillashtirish mexanizmlarini samarali qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur holat esa tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan yangi va moslashuvchan (adaptiv) modellarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida tijorat banklarida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida moliyaviy tahlil, statistik tahlil, solishtirma (taqqoslama) tahlil hamda empirik yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanib, ularning raqobatbardoshlik darajasi hamda bank sektoridagi o'rni baholandi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda [O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti](#)da e'lon qilingan "Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida 2026-yil 1-mart holatiga (banklar kesimida)" statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Mazkur ma'lumotlar asosida tijorat banklarining aktivlari, kreditlari, kapitali hamda depozit ko'rsatkichlari tahlil qilinib, bank sektorida raqobat muhitining shakllanish xususiyatlari ilmiy jihatdan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanishini chuqur tahlil qilishda bank sektorining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, aktivlar, kreditlar, kapital va depozitlar kabi ko'rsatkichlar banklarning moliyaviy barqarorligi, bozor ulushi hamda raqobatbardoshlik darajasini baholashda asosiy indikatorlar hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida bank tizimidagi mavjud raqobat muhiti, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi nisbat hamda ularning iqtisodiyotga ta'siri aniqlanadi.

Quyida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 2026-yil 1-mart holatiga ko'ra asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2026-yil 1-mart holatiga)⁵

№	Bank nomi	Aktiv		Kredit		Kapital		Depozit	
		Summasi (mlrd so'm)	Ulushi, %	Summasi (mlrd so'm)	Ulushi, %	Summasi (mlrd so'm)	Ulushi, %	Summasi (mlrd so'm)	Ulushi, %
Jami		932,347	100%	613,701	100%	138,353	100%	421,877	100%
Davlat ulushi mavjud banklar (9ta)		590,610	63%	410,408	67%	82,506	60%	217,857	52%
Boshqa banklar (25ta)		341,736	37%	203,293	33%	55,848	40%	204,020	48%

Tahlil qilinayotgan ma'lumotlarga ko'ra, bank sektoridagi jami aktivlar hajmi 932 347 mlrd so'mni tashkil etib, uning 63 foizi davlat ulushi mavjud banklar hissasiga, 37 foizi esa boshqa (xususiy) banklar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur holat bank tizimida davlat ishtirokining yuqori darajada saqlanib qolayotganini hamda aktivlar taqsimotida muayyan tafvutlar mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, davlat ulushi mavjud banklar soni boshqa banklarga nisbatan kam bo'lishiga qaramay, ularning aktivlar hajmidagi ulushi yuqori ekanligi alohida e'tiborga loyiqdir.

Kredit portfeli bo'yicha ham shunga o'xshash tendensiya kuzatiladi. Jami kreditlar hajmi 613 701 mlrd so'mni tashkil etib, uning 67 foizi davlat ulushi mavjud banklar hissasiga to'g'ri keladi. Xususiy banklarning kredit ajratishdagi ulushi esa 33 foizni tashkil etadi. Bu holat kredit resurslarining asosiy qismi davlat banklari orqali iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilayotganini hamda bank sektorida davlat banklarining yetakchi mavqega ega ekanligini ko'rsatadi.

Kapital ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, jami kapital hajmi 138 353 mlrd so'mni tashkil etib, uning 60 foizi davlat banklari, 40 foizi esa boshqa banklar hissasiga to'g'ri keladi. Kapitalning bunday taqsimlanishi bank sektorida moliyaviy barqarorlik va institutsional salohiyat nuqtayi nazaridan davlat banklarining muhim o'rin tutayotganidan dalolat beradi.

Depozitlar hajmi bo'yicha esa nisbatan muvozanatli holat kuzatiladi. Jami depozitlar hajmi 421 877 mlrd so'mni tashkil etib, davlat banklari ulushi 52 foiz, xususiy banklar ulushi esa 48 foizni tashkil qiladi. Mazkur holat xususiy banklar tomonidan depozitlarni jalb qilish borasida raqobatning bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini hamda ularning bozordagi faol ishtirokini namoyon etadi.


Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyatida davlat ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotgani aktivlar va kredit resurslari taqsimotida sezilarli farqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, depozitlar segmentida xususiy banklarning nisbatan faol ishtiroki bank sektorida raqobat muhitining ayrim yo'nalishlarda rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat bank tizimida raqobatni yanada rivojlantirish, xususan, tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan va zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, taklif etilayotgan adaptiv mexanizm tijorat banklari faoliyatini bosqichma-bosqich takomillashtirish orqali ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuv sifatida namoyon bo'ladi (1-rasm).

5 [O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti](#) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Maqsad: Bank xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish



1-rasm. Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishning adaptiv monitoring va qayta aloqa mexanizmi⁶

Mazkur mexanizmning dastlabki bosqichida tashqi va ichki omillarni chuqur tahlil qilish nazarda tutiladi. Bunda raqobat muhiti, moliyaviy texnologiyalar (fintech) rivoji hamda muammoli kreditlar darajasi (NPL) kabi omillar kompleks ravishda baholanadi. Natijada bank faoliyatidagi zaif tomonlar aniqlanib, keyingi strategik qarorlarni qabul qilish uchun muhim axborot bazasi shakllantiriladi.

Keyingi bosqichda bank faoliyatining joriy holati tizimli ravishda tahlil qilinadi. Ushbu jarayonda moliyaviy ko'rsatkichlar, risk darajasi, likvidlik va rentabellik kabi indikatorlar asosida bankning ichki imkoniyatlari hamda mavjud cheklovlari aniqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, muammoli yo'nalishlarni, jumladan, kredit risklari va aktivlar sifati bilan bog'liq kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

Mexanizmning muhim bosqichlaridan biri sifatida raqobatchilar faoliyatini o'rganish (benchmarking) alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda ilg'or banklarning tajribasi, ularning biznes modellari va xizmat ko'rsatish darajasi o'rganilib, ular bilan solishtirma tahlil amalga oshiriladi. Natijada bank uchun raqobat ustunliklarini shakllantirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Shundan so'ng, bank faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan biznes jarayonlari hamda ularning muqobil variantlari baholanadi. Mazkur jarayon operatsion samaradorlikni oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va xarajatlarni optimallashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, natijada eng maqbul biznes modeli tanlab olinadi. Tanlangan model asosida esa bankning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi shakllantiriladi.

Keyingi bosqichda mazkur strategiya amaliyotga joriy etilib, uni amalga oshirish bo'yicha aniq dastur ishlab chiqiladi. Ushbu jarayon strategik maqsadlarning amaliy natijalarga aylanishini ta'minlaydi hamda bank faoliyatida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beradi. Natijada banklarning raqobatbardoshligi va umumiy samaradorligi oshadi.

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.



Mexanizmning yakuniy bosqichi sifatida adaptiv monitoring va qayta aloqa tizimi joriy etiladi. Ushbu tizim bank faoliyatining doimiy monitoringini ta'minlab, bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga tezkor moslashish imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqilgan strategiyaning samaradorligini oshirish bilan birga, uni zarur hollarda takomillashtirib borish imkonini ham yaratadi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan adaptiv mexanizm tijorat banklari faoliyatini tizimli ravishda takomillashtirish, mavjud nomutanosibliklarni kamaytirish hamda sog'lom raqobat muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada bank sektorida raqobatning kuchayishi, xizmatlar sifatining oshishi va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Bunda bank sektorida davlat ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotgani raqobat muhitining rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillar asosida aniqlanishicha, bank aktivlari va kredit resurslarining asosiy qismi davlat ulushi mavjud banklar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mazkur holat moliyaviy resurslar taqsimotida muayyan tafovutlarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, bank tizimida raqobat mexanizmlarini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, xususiy banklar tomonidan depozitlar jalb qilish va raqamli xizmatlarni rivojlantirish yo'nalishida yuqori faollik kuzatilayotgani ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini hamda raqobatbardoshligini oshirishga intilayotganini ko'rsatadi. Xususiy banklarning innovatsion yondashuvlari va mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlari bank sektorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tahlillar jarayonida ishlab chiqilgan adaptiv mexanizm tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishda samarali vosita sifatida baholandi.

Mazkur mexanizm asosida bank faoliyatini kompleks tahlil qilish, raqobatchilar faoliyatini o'rganish, optimal strategiyalarni tanlash va ularni izchil amalga oshirish orqali banklarning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirish hamda operatsion samaradorligini yaxshilash mumkinligi asoslandi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tijorat banklarida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va uni yanada rivojlantirish maqsadida bank sektorida davlat ulushini bosqichma-bosqich optimallashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali teng raqobat sharoitlarini rivojlantirish, tijorat banklari o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytirish maqsadida bozor mexanizmlarini keng joriy etish va tartibga solish tizimini takomillashtirish, banklarning resurs bazasini mustahkamlash hamda depozitlarni jalb qilish bo'yicha moslashuvchan foiz siyosatini keng qo'llash, raqamli texnologiyalar va fintech yechimlarini keng joriy etish orqali bank xizmatlari sifatini oshirish hamda mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish, muammoli kreditlar darajasini pasaytirish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, xalqaro moliya bozorlariga integratsiyani kuchaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali bank sektorining raqobatbardoshligini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda, tijorat banklarida raqobat muhitini rivojlantirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar bank tizimining samaradorligini oshirish, moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Adaptiv yondashuvlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish esa bank sektorining uzoq muddatli va barqaror raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida". <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi PF–6019-son Farmoni "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://www.lex.uz/uz/docs/-4887654?ONDATE=01.03.2025>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-fevraldagi PF–35-son Farmoni "Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish va xususiy sektorning rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://www.lex.uz/uz/docs/-8076453?ONDATE=07.03.2026>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi PF–189-son Farmoni "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-7789403>
5. Toymuhamedov I.R., Tojiyev R.R., Azlarova A.A., Bazarova N.R., Sattorova N.G'. *Pul va banklar*: darslik. – Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. – 408 b.
6. Abdulloev A.J. va boshq. *Pul va banklar*: o'quv qo'llanma. – Buxoro: «Sadridin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, 2021. – 360 b.
7. Rashidov Yu. va boshq. *Pul, kredit va banklar*: "Bank ishi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik / mas'ul muharrir B.Yu. Xodiyev; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 328 b.
8. Rungporn Roengpitya. *Bank business models*. BIS Quarterly Review, December 2014.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
